

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



2025 yil

INSON HUQUQLARI FAN DASTURI

Kunduzgi ta'lim uchun

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	420000	- Huquq
Ta'lim yo'nalishlari:	60420100	- Yurisprudensiya

Urganch- 2025

Mazkur fan dasturi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2025 yil " " dagi -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlar bo'yicha prorektor:  prof. S.U. Xodjanoyev

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  dots. G'R. Matlatipov

Mazkur fan dasturi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining 2025 yil " " dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (-sonli bayonnomasi).

"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar"

fakulteti dekani:  prof. I.S. Abdullayev

Mazkur fan dasturi "Huquq" kafedrasining 2025 yil " " dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (-sonli bayonnomasi).

Huquq kafedrasini mudiri:  dots. U.Q. Hajiyev

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
IH305	2025-2026	3	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek		4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Inson huquqlari	150	90	60
I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishdan maqsad: Inson huquqlari va erkinliklari hamda majburiyatlarini o'zaro chambarchas va bir-biriga bog'liq holda tushunish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish hamda ularni himoya va muhofaza qilish muammolarini ularning turfa xilligidan kelib chiqqan holda o'rganish asosida insonning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, o'z majburiyatlariga ongli ravishda rioya etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, "Inson huquqi" fani yana quyidagi maqsadlarni ham ko'zlaydi: <i>talabalarining, ya'ni kelgusida davlat va tijorat tuzilmalarida tegishli mansabni egallaydigan va davlatning huquqiy tizimi, xususan, inson huquqlarining ahvoli, ularning kafolatlanishi va amalga oshirilishi bilan bevosita shug'ullanuvchi bo'lajak mutaxassislarining huquqiy ongini yuksaltirish;</i> <i>talabalarga har bir erkin inson ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar – insoniy dunyoy qarash, demokratik ko'nikmalar, insoniy qadr-qimmat, o'zini o'zi hurmat qilish, fuqarolik mas'uliyati tuyg'usini singdirish;</i> <i>talabalarda ta'limning butun jarayonida, ushbu fanni chuqur o'rganish uchun hamroh bo'lishi kerak bo'lgan o'z huquqlari va erkinliklari kabi, boshqa insonlarning ham shunday huquqlari va erkinliklarini chuqur tushunish va hurmat qilish hissini shakllantirish.</i></p>				
<p style="text-align: center;">Fanning asosiy vazifasi:</p> <p>Har bir fanning o'ziga xos vazifalari bo'lgani kabi, "Inson huquqi" fanining oldiga ham qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: <i>Birinchi</i> fuqarolarni inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi bilimlar bilan tanishtirish; <i>Ikkinchi</i> fuqarolarda insonlarga, ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissini oshirish; <i>uchinchi</i> huquqni qo'llovchi mansabdor shaxslarda inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish bo'yicha mas'ullikni oshirish; <i>to'rtinchi</i> jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga ko'maklashish; <i>beshtinchi</i> jamiyatda yuqori darajada fuqarolik mas'uliyatini his eta oladigan huquq subyektlari shakllantirish.</p>				
<p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu, "Inson huquqi" fanining predmeti va tizimi.</p>				

Mustaqillik va inson huquqlari. "Inson huquqi" fani tushunchasi, obyekt, predmet, maqsad va vazifalari. "Inson huquqi" fanini o'rganish metodologiyasi. "Inson huquqi" fanining ijtimoiy gumanitar va huquqiy fanlar tizimida turgan o'rnini. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari.

2-mavzu. Inson huquqining manbalari

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning ahamiyati. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli. Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari. Globallashuv va XXI asrda inson huquqlari rivojlanishining dolzarb masalalari

3-mavzu. Inson huquqi bo'yicha milliy institutlar

BMTning inson huquqlari sohasidagi umumiy faoliyati. BMTning inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlari. BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funksiyasi. BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida inson huquqlari masalasi

4-mavzu. Inson huquqi bo'yicha xalqaro andoza

Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning zarurligi, ularning turlari va ahamiyati. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy xalqaro hujjatlar. BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar.

5-mavzu. Mahkumlarning huquqiy maqomi

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokollar. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Bill

6-mavzu. Qochoqlarning huquqiy maqomi

Inson huquqlarini himoya qilishda universal hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlik. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimi. Inson huquqlarini himoya qilishning Amerika tizimi. Inson huquqlarini himoya qilishning Afrika tizimi. Inson huquqlarini himoya qilishning Osiyo-arab tizimi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tizimning tavsifi

7-mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlarning huquqiy holati

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining xalqaro huquqiy asoslari. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro shakllari

8-mavzu. Huquqni muhofaza qilish organi xodimlari tomonidan kuch ishlatishda inson huquqlarini ta'minlash

O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimining shakllanishi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi. O'zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlari.

9-mavzu. Odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari

Ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchasi. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilish. Ayollar huquqlari va erkinliklarini

himoya qilishga oid milliy qonunchilik asoslari. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning milliy mexanizmi

10-mavzu. Inson huquqining kafolatlari

Bola huquqlari tushunchasi. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmlar

11-mavzu. Inson huquqini buzganlik uchun yuridik javobgarlik

Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlash me'yorlari. Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rnini va roli. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rnini va roli. Inson huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'rnini va roli

12-mavzu. Insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorlik - O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo'nalishi. O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi. O'zbekistonning YeXHT bilan inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi.

13-mavzu. Fuqarolarning davlat xizmatiga kirish huquqi

Fuqarolar davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega hisoblanadilar va ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etish mumkin emasligi haqidagi normalar haqida tushunchalar berish tartibi.

14-mavzu. Insonning malakali yuridik yordam olish huquqi

Insonning malakali yuridik yordam olish huquqi bu xalqaro qonunchilik va milliy O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi orqali tartibga solinadi va bundan tashqari "Advokatura to'g'risida"gi qonun va "Notariat to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

15-mavzu. Insonning davlat va jamiyat oldidagi burchlari

Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlash me'yorlari. Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rnini va roli. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rnini va roli. Inson huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'rnini va roli

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Inson huquqi" fanining predmeti va tizimi.
2. Inson huquqining manbalari
3. Inson huquqi bo'yicha milliy institutlar
4. Inson huquqi bo'yicha xalqaro andoza
5. Mahkumlarning huquqiy maqomi
6. Qochoqlarning huquqiy maqomi
7. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlarning huquqiy holati
8. Huquqni muhofaza qilish organi xodimlari tomonidan kuch ishlatishda inson huquqlarini ta'minlash
9. Odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari
10. Inson huquqining kafolatlari
11. Inson huquqini buzganlik uchun yuridik javobgarlik

12. Insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi
13. Fuqarolarning davlat xizmatiga kirish huquqi
14. Insonning malakali yuridik yordam olish huquqi
15. Insonning davlat va jamiyat oldidagi burchlari

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Inson huquqlari" fanining mavzusi, tizimi, usullari va ahamiyati
2. "Inson huquqlari" fani tushunchasi, obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari
4. Inson huquqlari va xalqaro huquqning rivojlanishi
5. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli
6. Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari
7. Inson huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'rni va roli
8. BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari
9. Inson huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujjatlar
10. BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjalari
11. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar
12. Inson huquqlari umunjahon deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati
13. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati
14. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Bill
15. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro (mintaqaviy) mexanizmi
16. Inson huquqlarini himoya qilishda universal hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlik
17. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar
18. O'zbekistonda inson huquqlari sohasi davlat siyosatining asosiy ramoyilari
19. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi
20. Shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar
21. Insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari
22. O'zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlar
23. Ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchasi
24. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik asoslari
25. Bola huquqlari
26. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar
27. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmi
28. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining o'zaro bog'liqligi

29. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidainsonning burchlari va majburiyalar

30. Inson huquqlarini ta'minlash usullari
 31. Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli
 32. O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligi
 33. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo'nalishi
 34. O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi
 35. O'zbekistonning YeKHT bilan inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi
 36. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy komponentlari:

Talaba bilishi kerak:

- talabalarga inson huquqlari rivojlanishining tarixiy bosqichlarini;
- inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro huquqiy normalarning ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlashning huquqiy masalalarini;
- saylov jarayonidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari va chora-tadbirlarini;
- O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi variyojlanishida olib borilayotgan demokratik islohotlarni;
- ayollar va bola huquqlarini ta'minlashda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tarixi, tuzilishi va unga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida chuqur bilim berish orqali ularda huquqiy madaniyat, huquqiy ong hamda o'zgalor huquqlariga yuksak hurmat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

Tahlil jihatidan:

Talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak:

- ma'lumotlarni tahlil qilish, tartibga solish va sharhlash;
- huquqiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash;
- huquqiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, jadvallar tuzish, ularni tahlil jadvallari orqali tahlil qilish
- muammoli vaziyatlarga qo'llash uchun normalar-huquqiy hujjalarni izlash hamda ularni sharhlash;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Babolay olish jihatidan:

Talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak:

- inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro huquqiy normalarning ahamiyatini,
- O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlashning huquqiy masalalarini, mamlakatning jamiyat va davlat xayotida ishtirok etishda kvalifikatsion va professional qo'llay bilish,
- inson huquqlari rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, qiyosiy analiz metodi va metodologiyalarini qo'llay olish, murakkab davlat - huquqiy muammolarga ilmiy-

<p>tadqiqot yondashishni bilish,</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi varivojlanishida olib borilayotgan demokratik islohotlarni, huquq normalari qo'llash, fuqarolik jamiyatining tarkibiy tuzilishi va asosiy prinsiplari, davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy qoidalari bo'yicha tushuntirish ishlari olib bora olish, - nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, inson huquqlarining zamonaviy uslublarini qo'llay olish kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.
<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys – stadilar; - seminarlar (maniqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.</p> <p>Baholash ta'minlaydi.</p> <p>Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari</p> <p>Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. (Yakuniy nazoratni yozma, og'zaki, test va boshqa usullarda olish mumkin.)</p> <p style="text-align: center;">VIII. Talabalar bilimni baholash</p> <p>Talaba bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ra maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9-avgustidagi 19-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish baholash tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. (NIZOM -https://lex.uz/docs/3916793).</p>
<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. -T.: O'zbekiston, 2010. 2. Mo'minov A. O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. -T.: "Yangi asr avlodi", 2003. 3. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. - T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. 4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. - T.: 2010.

<p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023 y 2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. - T.: "Adolat", 2004. - 520 b. 3. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar. - T.: "Adolat", 2002.-270 b. 4. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/Международные документы по правам несовершеннолетних. - T.: "Adolat" 2002.-232 b. 5. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. - T.: 2002. - 164 b. 6. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar /Mas'ul muharrir: A.X. Saidov - T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012. - 460 b. 7. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashr uchun mas'ul A.X. Saidov. - T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. 8. O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. - T.: TDYul. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal. 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 3. www.ifmr.uz - Prognoz/ushirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti sayti. 4. www.ziyounet.uz -- jamoat ta'lim portal.
